

IBTIDOIY JAMIYATDA URF-ODATLAR VA E'TIQODLARNING SHAKLLANISHI TARIXI

*Otaboyeva Ro'za Qahramon qizi,
Urganch innovatsion universiteti
Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar)
bo'yicha 4-bosqich, 23-01 guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat tarixining ilk davrlarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng qadimgi odatlar, nikoh tizimi, dafn marosimlari, xo'jalik faoliyati bilan bog'liq rituallar hamda diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi darslik manbalari va tarixiy iqtiboslar asosida tahlil qilinadi. Matnda qadimgi jamoalardagi initsiatsiya jarayonlari, oila tizimining matriarxatdan patriarxatga o'tishi hamda Gerodot, Narshaxiy va "Avesto" kabi yozma manbalarda keltirilgan qadimgi xalqlarning dafn marosimlari haqidagi ma'lumotlar tizimlashtirilgan."

Kalit so'zlar: Ibtidoiy jamiyat, urf-odatlar, initsiatsiya, matriarxat, patriarxat, dafn marosimi, ossuariy, fetishizm, totemizm, animizm, "Avesto", Gerodot, Narshaxiy.

Kirish: Mustaqillik tufayli milliy ongimiz va tarixiy xotiramiz qayta tiklanmoqda. Zero, istiqbolga erishganimiz bois biz o'z tariximizni juda qadimgi zamonlardan — ming yilliklar qa'ridan izlamoqdamiz. O'tmish ichiga qanchalik chuqur kirib borilsa, undan shunchalik quvvat olinadi va o'zlikni anglash imkoniyati tug'iladi. Insoniyat jamiyati paydo bo'lgan ilk davrlardan oq odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, jamoa jipsligini ta'minlash va tabiat hodisalarini anglash maqsadida turli urf-odatlar hamda e'tiqodlar tizimi shakllana boshlagan. Eng qadimgi davrlarda odamlar to'da-to'da bo'lib yashaganlar hamda yirtqich hayvonlar, tabiat ofatlaridan saqlanish maqsadida jamoaviy hayot kechirganlar. Vaqt o'tishi bilan

jamo'a a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ichki nizolarga chek qo'yish va tartibsizliklarning oldini olish maqsadida ilk odatlar yuzaga kelgan bo'lib, bu davrda urf-odatlar qonun vazifasini bajargan.

Jamoaviy munosabatlarning takomillashishi natijasida oila va nikoh marosimlari ham shakllana boshlagan. Dastlabki davrlarda jinsiy munosabatlar mavsumiy xarakterga ega bo'lib, keyinchalik muayyan qoidalarga solingan. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida matriarxat, ya'ni ona urug'i davri ustunlik qilgan. Bu davrda bolalar faqat onasini tanigan, ayollar esa xo'jalik ishlarida va bolalar tarbiyasida yetakchi o'rin tutgan, shu sababli oilada onaning obro'si juda yuqori bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan, og'ir mehnat va ovchilik faoliyati tufayli erkaklarning mavqeyi oshib, patriarxat tizimi va yakka nikohli (monogam) oilalar vujudga kelgan.

Qadimgi urug'chilik davrida to'y marosimi butun jamoaning bayramiga aylangan bo'lib, yoshlarning oila qurishga tayyorligini sinash uchun maxsus jismoniy sinovlar va o'yinlar o'tkazilgan. Qadimgi davrda yoshlarni hayotga tayyorlash va ularni qabila an'alariga o'rgatish maqsadida maxsus erkaklikka o'tish ("initsiatsiya") marosimlari keng rasm bo'lgan.[1] Bu marosimda o'spirin yoshlar qiyin sharoitlarda, yirtqich hayvonlar bilan olishish va tabiat ofatlariga qarshi turish kabi og'ir jismoniy sinovlardan o'tkazilgan. Ushbu imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan yoshlarga jamoaning teng huquqli a'zosi va uylanish huquqiga ega bo'lgan.

Insoniyatning ilk diniy tasavvurlari va dunyoqarashi esa ularning o'lim hamda undan keyingi hayot haqidagi tushunchalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ibtidoiy odamlar o'limni ruhning tanani vaqtincha tark etishi yoki uzoq muddatli uyqu deb bilishgan. Arxeologik qazilmalar, xususan, Selungur, Ko'kbuloq va Teshiktosh g'orlaridan topilgan qabrlardan ma'lum bo'lishicha, marhumlarni qabrga dafn etishda ularning yoniga tiriklik paytida ishlatgan qurollari, idishlari va hayvon go'shtlari birga ko'milgan. Keyinchalik esa o'liklarni ochiq joylarga, tog' yonbag'irlariga tashlab ketish yoki suyaklarini maxsus idishlar — ossuariylarga solib saqlash odati yuzaga kelgan. Zardushtiylikning muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto" kitobida qayd etilishicha, murdalarni tuproqqa topshirish kechirilmas gunoh hisoblangan.[2]

Shuningdek, qadimgi xalqlarning, jumladan massagetlarning dafn marosimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Gerodot o'zining "Tarix" kitobida yozishicha, agar inson juda qarib vafot etsa, qarindosh-urug'lari yig'ilib uni qurbon qilishgan va go'shtini pishirib, ziyoat uyushtirishgan.[3] Agar inson kasallikdan vafot etsa, uni yerga ko'mmay, baxtsiz o'lim hisoblab, qurbonlik bo'lishga ulgurmagani uchun qayg'urishgan. Gerodot yana qayd etishicha, Isseedon va Uraloldi hududlarida yashovchi qabilalarda ham marhumning bosh suyaklarini tozalab, oltin bilan qoplab, katta marosimlarda idish sifatida foydalanishgan.[3] Xitoy yilnomasi "Tan-shu"da esa turkiy xalqlarning ko'mish marosimlari haqida so'z borib, unda o'lik chiqqan uy atrofiga minglab odamlar yig'ilgani, yuzlarini pichoq bilan tilib qon oqizishgani aytiladi. Rim tarixchisi Rufning yozishicha, ossuriyaliklar o'z ajdodlarining jasoratlarini ulug'lash maqsadida harbiy g'alabalardan so'ng dushman asirlarini qatl qilib, ularning bosh suyaklaridan idishlar va anjomlar yasashgan. Qadimgi o'zbek adabiyoti tarixiga oid manbalarda ham dafn marosimi o'tkazilganda marhumning qabriga dushman bosh suyaklari qo'yilgani yoki uning suratini ishlab, qilgan ishlari o'yib yozilgani haqida ma'lumotlar bor.[4]

Insoniyatning xo'jalik faoliyati va kundalik mehnati ham turli marosimlar hamda e'tiqodlar shakllanishiga zamin yaratgan. Ibtidoiy jamoalarda ovga chiqishdan oldin muvaffaqiyat qozonish uchun maxsus "ovchilik o'yinlari" tashkil etilgan, unda hayvonlar tasviriga qarab qurol otish mashq qilingan va sehrli harakatlar bajarilgan. Keyinchalik chorvachilik va o'troq dehqonchilikning rivojlanishi bilan tabiat kuchlariga, chorva mollarini asrashga qaratilgan "kelasi oshi", "sigir sog'ish", "gunohni ko'chirish" kabi rituellar yuzaga kelgan. Odamlarning tabiat hodisalarini anglashga bo'lgan urinishlari natijasida ilk diniy e'tiqodlar — fetishizm (jonsiz narsalarga sig'inish), totemizm (hayvon yoki o'simlik bilan qarindoshlik rishtasi borligiga ishonish) va animizm (tabiatning joni borligiga ishonish) vujudga kelgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida qayd etilishicha, qadim vaqtlarda Buxoro

aholisi butparast bo'lgan va o'sha davrlardagi maxsus bozorda butlar sotilgan bo'lib, bu odat keyinchalik ham saqlanib qolgan.[5]

Xulosa Ibtidoiy davrda shakllangan urf-odatlar, huquqiy normalar va ilk diniy tasavvurlar (fetishizm, totemizm, animizm) insoniyat ma'naviy hayotining ilk poydevori bo'lib xizmat qilgan. Jamiyat taraqqiyoti davomida iqtisodiy omillar tufayli oila tizimining matriarxatdan patriarxatga o'tishi, yoshlarni hayotga tayyorlashdagi initsiatsiya rituellari hamda "Avesto" va antik manbalarda muhrlangan o'ziga xos dafn marosimlari ajdodlarimizning dunyoqarashi naqadar murakkab bo'lganini ko'rsatadi. Bu qadimgi an'analar va rituallar keyingi davrlar madaniyati, huquqi va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida muhim zamin bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «История древнего мира» – М.: «Просвещение», 1979, с. 54.
2. «Авесто» // «Гулистон» журналы, 1989, № 1, 49-бет.
3. «История Узбекистана в источниках» – Т.: «Фан», 1984, с. 54–55, 59.
4. Х. М. Маллаев. «Ўзбек адабиёти тарихи» – Т.: «Ўқитувчи», 1965, 80-бет.
5. Наршахий. «Бухоро тарихи» – Т.: «Фан», 1966. (А. Расулов ва А. Ўринбоевлар таржимаси), 25-бет.